



MOLIYA VA BANK ISHI

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI BANK-MOLIYA AKADEMIYASI ILMIY JURNALI



Bank balansidagi mulklar, ularni bo'lib to'lash sharti asosida sotish

Erdonaeva Go'zal Aliqulovna

O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi mustaqil izlanuvchisi.

Maqola haqida ma'lumot

Topshirilgan vaqti: 09.11.2025

Qabul qilingan vaqti: 12.11.2025

Tayanch so'z va iboralar: *auksion (kimoshdi savdosi), Mulkning balans qiymati, Mulkning haqiqiy qiymati, Mulkning baholash qiymati, Auksion g'olibi, Mulkning boshlang'ich qiymati (narxi), Mulk turi, Bo'lib to'lash.*

Annotatsiya

O'zbekistonda bank tizimi juda ko'p islohotlarni boshidan kechirdi va kechirmoqda. Xususan transformatsiya va raqamlashtirish jarayonlari ushbu islohotlarning yorqin namunasi hisoblanadi. So'ngi yillarda banklar tomonidan jozibador yangi bank mahsulotlarini joriy etilishi va amaliyotga tezkorlik bilan taklif etilishi keskin ko'paydi. Ayni vaqtda ushbu takliflar orasiga bank balansiga olingan va bo'lib to'lash sharti asosida sotishga chiqarilgan mulklar ham ko'paymoqda. Ushbu yo'nalishdagi miqdor va mablag' massasining yuqoriligi mazkur jarayonlarni atroflicha emas balki mukammal o'rganishni taqozo etmoqda.

Properties on the bank's balance sheet, sale on the basis of installment payments

Erdonaeva Go'zal Aliqulovna

Independent researcher at the Banking and Finance Academy of the Republic of Uzbekistan.

ARTICLE INFO

Received: 09.11.2025

Accepted: 12.11.2025

Key words: *auksion, book value of the property, actual value of the property, appraised value of the property, auction winner, initial value (price) of the property, property type, installment payment.*

Abstract

The banking system in Uzbekistan has undergone and is undergoing many reforms. In particular, the processes of transformation and digitization are a vivid example of these reforms. In recent years, the introduction and rapid introduction of attractive new banking products by banks has sharply increased. At the same time, among these offers, there is an increasing number of properties taken to the bank's balance sheet and put up for sale on an installment basis. The high volume and mass of funds in this area require not only a detailed, but also a thorough study of these processes.

Kirish

Kredit lizing va faktoringdan tashqari bankda boshqa aktivlar bilan ham samarali ishlar olib borilmoqda. Shundan kelib chiqib bank balansida yuritilayotgan va bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarni aniq hisobini yuritish maqsadida banklarda mulklar bilan ishlash uchun tijorat banklarida yangi "Mulk dasturi" talab etilmoqda.

"Mulk dasturi" vazifalari quyidagilardan iborat bo'lishi yanada mukammallik kasb etadi. Quyida O'zsanoatqurilishbank ATB tizimida qo'llanib kelinayotgan jarayonlarni ko'rish mumkin.

Bank balansidagi mulklar quyidagi holatlar bo'yicha hisobini yuritish lozim. Bank balansiga taklif etilayotgan mulklar, bank balansidagi mulklar, bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar.

Bank balansiga taklif etilayotgan mulklar

MIB tonidan bank balansiga taklif etilgan mulklar hisobini yuritish, Alohida hollarda bank balansiga taklif etilgan mulklarni bino-inshoot, transport, asbob uskunalar bo'yicha ajratish orqali turlarga bo'lish, Mulklarning bugungi kundagi bozor bahosi hisobini yuritish, Taklif etilayotgan mulklar bo'yicha hujjat almashinuvini tashkil etish,

Bank balansidagi mulklar

Bank balansiga qabul qilingan mulklarni hisobini yuritish, Bank balansidagi mulklar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar hisobini yuritish, Bank balansidagi mulklarni E-Auksion savdolariga chiqarish hamda Auksion savdolariga qo'yilgan mulklar bo'yicha nazorat o'rnatish, Amaldagi 2696-Nizom talablari asosida tasniflash va mos tasniflarga nisbatan zaxiralar yaratishni amalga oshirish, Hududlar va bank xizmatlari bo'yicha bank balansidagi

mulklar hisobini yuritish, Balansdagi mulklar bo'yicha hududlardagi bo'linmalar bilan hujjat almashinuvini tashkil etish, Balansdagi mulklarni mustaqil baholovchi tomonidan baholatilgan holda bugungi kundagi bozor bahosini aniqlash, Bank balansidagi mulklarni turlari bo'yicha (bino-inshoot, transport, asbob uskuna) ma'lumotlar olish va tayyorlash.

Tadqiqot metodologiyasi

Balansdagi mulklarni har chorakda monitoring qilib borilishini ta'minlash, Balansdagi mulklarni kimga, qachon, qancha summaga sotilgani to'g'risida ma'lumotlar olish.



Tijorat banklari jamlanma balansi ma'lumotlari asosida tayyorlandi.

So'ngi 5 yil davomida bankning boshqa xususiy mulklari sezilarli darajada oshganligini ko'rishimiz mumkin.

O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining tijorat banklari jamlanma balansi ma'lumotlariga asosan 2020 yilda 352,8 mlrd.so'mni tashkil etgan bo'lsa, ushbu ko'rsatkich 2025 yil yarimiga kelib 6 978,1 mlrd.so'mni tashkil etmoqda. Yuqoridagi diagrammada bankning boshqa xususiy mulklari hajmi asosan 2023 yildan boshlab oshganligini kuzatishimiz mumkin. Bu o'z navbatida bank balansidagi mulklar bo'yicha alohida yondashuv asosida qator izlanishlar olib borilishini taqozo etadi.

Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar

Bo'lib to'lash orqali sotilgan mulklarni hisobini yuritish, Sotilgan mulklar bo'yicha to'lov grafigi asosida muddati o'tgan hisob raqamga o'tkazish, ular bo'yicha foizlar hisoblash, Sotilgan mulklar bo'yicha hujjat almashinuvini tashkil etish, Sotilgan mulklarni monitoring qilib borilishini ta'minlash va boshqalar, Sotilgan mulklardan undirilgan mablag'lar to'g'risida ma'lumotlar olish.

Dastur foydalanishga qulay bo'lishi uchun quyidagi bo'limlardan iborat bo'ladi.

Bank balansiga olinmagan lekin bank balansiga taklif etilgan mulklar aks ettiriladigan dastur maydoni. Ushbu bandda balansga taklif etilayotgan mulk bugungi kundagi bozor bahosi, shu bilan birga taklif etilayotgan mulk bo'yicha boshqa ma'lumotlar olish imkonini beradi.

Asosiy ko'rsatkichlar; Mulk nomi - bank balansiga taklif etilayotgan mulk nomi. Kreditor - bank balansiga taklif etilayotgan mulkni garovga qo'ygan holda kredit olgan mijoz nomi. Taklif xati summasi - bank balansiga taklif etilayotgan mulk taklif xati summasi. Taklif xati sanasi - taklif xati sanasi Mulk turi - bank balansiga taklif etilayotgan mulk turi. Holati - bosh bankka yuborish uchun bank balansiga kiritilayotgan ma'lumotlar aks etgan holati.

Balansgacha bo'limi quyidagilarni o'z ichiga oladi;

-Ma'lumotlar-bu balansga taklif etilayotgan mulk bo'yicha umumiy tushuncha va ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi qism. Ushbu mulk kimning qaysi krediti hisobiga

balansga olinayotganligi, garov beruvchi nomi va stiri, mulk qancha summaga garovga olingani. Bundan tashqari taklif etilayotgan mulk bo'yicha alohida ma'lumotlar olish imkonini beradi.

-Hujjatlar-balansga taklif etilayotgan mulk bo'yicha hujjatlarni PDF holatda aks ettiruvchi qism. Bunda davo ariza, sud hal qiluv qarori, ijro varaqasi, taklif xati, dastlabki monitoring, taklif etilayotgan mulkning mijoz nomidagi ko'chmas mulk kadastri, transport texpasporti, asbob uskuna gtdsi to'g'risida ma'lumot olish imkonini beradi.

-Surat-balansga taklif etilayotgan mulk fotosuratlarini. Suratlarini ko'rish, saqlab olib ishda foydalanish imkonini beradi.

Bank balansiga olingan bank balansida yuritilayotgan mulklar aks ettiriladigan dastur maydoni.

Bank balansidagi mulk turi. Bank balansiga qabul qilingan mulk nomi. Bank balansiga qabul qilingan mulkni garovga qo'ygan mijoz nomi. Bank balansiga qabul qilingan mulkni garovga qo'ygan holda kredit olgan mijoz nomi. Mulk summasi. Balansiga qabul qilingan mulk sanasi. Bank balansiga qabul qilishga asos. Qabul qilingan mulk ma'lumotlari aks etgan anketa holati.

Balansdagi mulk bo'limi quyidagilarni o'z ichiga oladi;

-Ma'lumotlar-bu balansdagi mulk bo'yicha umumiy tushuncha va ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi qism. Ushbu mulk kimning qaysi krediti hisobiga balansga olinganligi, garov beruvchi nomi va stiri, mulk qancha summaga garovga olingani, qaysi holatlar bo'yicha balansga taklif etilganligini ko'rsatadi. Bundan tashqari mulk bo'yicha alohida (ishlab chiqarilgan/qurilgan yili, manzili va hokazo) ma'lumotlar olish imkonini beradi.

-Hisobvaraqa-bank balansiga olingan mulk bo'yicha hisobvaraqlarni aks ettiruvchi qism. Bunda qaysi hisobvaraqlardan foydalanilayotganligi va ular bo'yicha aylanmalarini olish imkonini beradi.

-Amaliyotlar- Bank balansiga taklif etilayotgan mulklarni balansga qabul qilish, xarajatlarni to'g'ri aks ettirish, Bank balansidagi mulklar bo'yicha amaliyotlar bajarish va Bank balansidagi mulklar hamda ular bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlarni so'ndirish ishlari amalga oshirish imkonini beradi.

-O'tkazmalar-amalga oshirilgan bank amaliyotlarini aks ettirish ishlari amalga oshiriladi. Amalga oshirilgan bank amaliyotlari tarixi bilan tanishish imkonini beradi.

-Asos- bank balansiga qabul qilishga asos. Bunda ushbu band ikkiga bo'linadi. Taklif xati asosida va voz kechish sharti asosida bo'ladi. Demak bank balansiga olingan mulklarni asosini elektron shakllantirish va undan foydalanish imkonini beradi.

-Hujjatlar-bank balansidagi mulk bo'yicha hujjatlarni aks ettiruvchi qism. Bunda ushbu band ikkiga bo'linadi. Taklif xati asosida va voz kechish sharti asosida. Bu birlashtirilgan hujjatlarni ko'rish, saqlab olish orqali ishda foydalanish imkonini beradi.

E-Auksion-bank balansidagi mulklarni Auksion savdolarida nazorat qilib borish imkonini beradi.

-Baholash-bank balansidagi mulklarni mustaqil baholovchi tomonidan qancha summaga baholatilganligi bilish imkonini beradi.

-Surat-balansga taklif etilayotgan mulk fotosuratlarini. Fotosuratlarini ko'rish, saqlab olish orqali ishda foydalanish imkonini beradi.

-Sotish-bank balansidagi mulklarni lot raqami orqali sotilgani aks ettiriladi. Keyinchalik sotilgan mulklar bo'yicha ma'lumotlar olish imkonini yaratiladi.

-Kuzatuv-bank balansidagi mulklar bo'yicha amalga oshirilgan monitoringlar tarixi aks ettirib boriladi. Bu mulklar bo'yicha amalga oshirilgan monitoringlarni ko'rish saqlash va ishda foydalanish imkonini beradi.

Bank balansidagi bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar aks ettiriladigan dastur maydoni. Asosiy ko'rsatkichlar: Mijoz nomi- bo'lib to'lash sharti asosida mulk sotib olgan mijoz nomi. Shartnoma summasi - bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk shartnoma summasi. Dastlabki to'lov, bo'lib to'lash summasi, shartnoma sanasi va so'ngi muddati, mulk holati va boshqalar.

Sotilgan mulk bo'limi quyidagilarni o'z ichiga oladi;

-Ma'lumotlar-bu bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha umumiy tushuncha va ma'lumotlarni o'zida aks ettiruvchi qism. Bunda mulk nomi, ushbu mulk kimning qaysi krediti hisobiga balansga olinganligi, garov beruvchi nomi va stiri, mulk qancha summaga balansga olingani ko'rsatadi. Bundan tashqari mulk bo'yicha alohida ma'lumotlar olish imkonini beradi.

-Foiz- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk shartnomasida ko'rsatilgan foiz stavkasi kiritiladigan maydon. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulkka xuddi shu stavkalarda foiz hisoblaniladi.

-Hisobvaraq- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha hisobvaraqlarni aks ettiruvchi qism. Bunda qaysi hisobvaraqlardan foydalanilayotganligi va ular bo'yicha aylanmalarini olish imkonini beradi.

-Amaliyotlar- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarni bo'yicha amaliyotlar bajarish ishlari amalga oshirish mumkin.

-Grafik- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk shartnomasida ko'rsatilgan to'lov grafigi kiritiladigan maydon. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar grafigi bilan tanishish mumkin.

-Hujjatlar- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha hujjatlarni aks ettiruvchi qism. Hujjatlar PDF shaklda joylanadi. Biriktirilgan hujjatlarni ko'rish, saqlab olish orqali ishda foydalanish imkonini mavjud.

-Ta'minot- bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha ta'minot sifatida garovga olingan mulklar va kafilliklar bo'yicha ma'lumot olish va ulardan foydalanish mumkin bo'ladi.

-Surat-balansga taklif etilayotgan mulk fotosuratlarini. Ularni ko'rish, saqlab olish orqali ishda foydalanish imkonini beradi.

-Kuzatuv-Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklar bo'yicha amalga oshirilgan monitoringlar tarixi aks ettirib boriladi. Bu mulklar bo'yicha amalga oshirilgan monitoringlarni ko'rish saqlash va ishda foydalanish imkonini beradi.

-Bayonnoma- Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan bo'yicha amalga oshirilgan jarayonlarni aniqlash imkonini beradi.

Balansiga taklif etilayotgan mulklarni "Balansga" maydonidan "Qo'shish" tugmasini bosish orqali qo'shadi. Bunda "Qo'shish" tugmasi bosilganda "Yangi maydon"

oynasi ochiladi va unga, mulk nomi, kredit olgan mijoz nomi, kredit ajratilishida garovga olingan mulk summasi, kredit ajratilishida garovga mulk bergan mijoz nomi va stiri, taklif xati summasi, taklif xati sanasi, bugungi kundagi bozor bahosi, E-Auksion savdolariga chiqarilgan mulk lot raqami, kredit ajratilishidagi kredit raqami va boshqalar.

Tahlil va natijalar muhokamasi

Mulk turi tanlanadi, mulk joylashgan hudud va tuman kiritiladi, mulk qurilgan yili to'ldiriladi. "Saqlash" tugmasini bosiladi. "Hujjatlar" bandiga o'tib hujjatlar biriktiriladi.

Hujjatlar-bandida balansga taklif etilayotgan mulk bo'yicha hujjatlarni PDF holatda kiritiladi. Bunda davo ariza, sud hal qiluv qarori, ijro varaqasi, taklif xati, dastlabki monitoring, mijoz nomidagi taklif etilayotgan mulk agar ko'chma mulk bo'lsa kadastr, transport bo'lsa texpasport, asbob uskuna bo'lsa gtdsi kiritiladi.

Bank balansiga taklif etilgan mulklarni "Balansda" maydonidan "Qo'shish" tugmasini bosish orqali qo'shadi. Bunda "Qo'shish" tugmasi bosilganda "Yangi maydon" oynasi ochiladi va unga, mulk nomi, kredit olgan mijoz nomi, kredit ajratilishida garovga olingan mulk summasi, kredit ajratilishida garovga mulk bergan mijoz nomi va stiri, taklif xati summasi, taklif xati sanasi, qo'mita qarori raqami, qo'mita qarori sanasi, tasnifi, kredit ajratilishidagi kredit raqami, E-Auksion savdolariga chiqarilgan mulk dastlabki lot sanasi.

- Agar mulk ko'chmas mulk bo'lsa, mulk tipi tanlanadi, mulk kadastr raqami __:__:__:_:___ ko'rinishda kiritiladi, mulk qurilgan yili to'ldiriladi, kadastr raqami, kadastr sanasi, mulk devori, tom qismi, qavati, xonalar soni, umumiy maydoni, qurilish osti maydoni, hududi, tumani, kommunikatsiyalari, lokatsiyasi, manzili va holati kiritiladi;

- Agar mulk transport bo'lsa, mulk tipi tanlanadi, ishlab chiqarilgan davlat, mulk ishlab chiqarilgan yili to'ldiriladi, dvigatel raqami, kuzov raqami, davlat raqami, shassi raqami, markasi, rangi, lokatsiyasi va holati kiritiladi;

- Agar mulk asbob uskuna bo'lsa, zavod raqami, uskuna raqami, ishga tushgan yili, mulk ishlab chiqarilgan yili, ishlab chiqarilgan davlat to'ldiriladi. Lokatsiyasi va holati kiritiladi;

"Saqlash" tugmasini bosiladi.

Hisobvaraq. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha hisobvaraqlarni aks ettiruvchi qism.

Amaliyotlar. Bu band dastavval bank balansiga mulkni aks ettirishdan boshlanadi. "Mulk dasturida "Yangi" holatda shakllanadi.

"Mulk dasturidagi bank amaliyotlar esa quyidagilardan iborat:

Xarajat. Bank balansidagi mulklar bo'yicha amalga oshirilgan xarajatlar aks ettiriladi. Xarajatlar quyidagilardan iborat. Baholash, saqlash, qo'riqlash, tashish, Auksion va boshqalar. Xarajatlar Mulk dasturida aks ettirilganda ularni bevosita amalga oshirmaydi bil aks ularni hisobini yuritadi. Ya'ni amalga oshirib bo'lingan xarajatlarni Mulk dasturida yuritish shu bilan birga amalga oshirilgan xarajatlarni bank balansidagi mulkka qo'shgan holda mulk qiymatini belgilaydi.

Kadastr xarajatlari. "Amaliyot turi"dan "Xarajatlar" bandi tanlanadi. Qo'shish bandidan esa "Kadastr xarajati" bandi tanlanadi.

Baholash xizmati xarajatlari. "Amaliyot turi"dan "Xarajatlar" bandi tanlanadi. Qo'shish bandidan esa "Baholash xarajati" bandi tanlanadi. 2025 yil 1 maydan boshlab davlat ishtirokidagi banklar va ular huzuridagi investitsiya kompaniyalariga auksionda sotilmasdan qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga olingan mol-mulkni bozor qiymatida to'g'ridan-to'g'ri sotishga, shu jumladan, kredit, bo'lib-bo'lib to'lash, lizing shartnomalari yoki qonunchilik hujjatlarida taqiqlanmagan boshqa bitimlar orqali sotishga ruxsat etilgani mulklarning real bozor bahosida sotilishini ta'minlaydi.

Saqlash, qo'riqlash, tashish, Auksion, texpasport, kommunal, soliq va boshqa xarajatlar yuqoridagi holatda dasturda aks ettiriladi.

Mulk bo'yicha amaliyot bank balansidagi mulklar bo'yicha 2696-Nizom talablari asosida balansdan tashqari hisobvaraqa o'tkaziladi.

So'ndirish. Bank balansidagi mulkni so'ndirish quyidagi ketma ketlikda amalga oshiriladi. Dastlab amalga oshirilgan xarajatlar "xarajatlarni so'ndirish" bandi orqali so'ndiriladi. Ikkinchi bosqichda bank balansidagi mulk "mulkni so'ndirish" bandi orqali so'ndiriladi. Agar mulk balansdan tashqari hisobvaraqa bo'lsa "Hisobdan chiqarilgan qarz bo'yicha mol-mulkni qaytarish" bandi orqali so'ndiriladi. Uchinchi bosqichda esa ortiqcha qiymatda sotilgan mulk summasi bank daromadga "Mulk daromadi" bandi orqali o'tkaziladi. Qo'shimcha qiymat solig'i to'lovi to'lab beriladi.

Taklif xatiga asosan balansga olinayotgan mulk ma'lumotlari quyidagi tartibda to'ldiriladi. Bank foydasiga qaror chiqargan sud nomi, sud qarori raqami, sud qarori sanasi, taklif xati bergan MIB nomi, ijro varaqa raqami, ijro varaqa sanasi, taklif xati summasi va taklif xatiga asosan qaytariladigan mablag' bandlari hujjatlarga mos ravishda to'ldiriladi.

Voz kechish shartnomasiga asosan balansga olinayotgan mulk ma'lumotlari quyidagi tartibda to'ldiriladi. Ta'sischilar qarori raqami, ta'sischilar qarori sanasi, mijoz arizasi sanasi, mijoz arizasi sanasi, voz kechish shartnomasi raqami, voz kechish shartnomasi sanasi va bank balansiga qabul qilinayotgan mulk summasi bandlari hujjatlarga mos ravishda to'ldiriladi.

Hujjatlar- balansga taklif etilayotgan mulk bo'yicha hujjatlarni PDF holatda kiritiladi. Bunda davo ariza, sud hal qiluv qarori, ijro varaqasi, taklif xati, dastlabki monitoring, mijoz nomidagi taklif etilayotgan mulk agar ko'chma mulk bo'lsa kadastr, transport bo'lsa texpasport, asbob uskuna bo'lsa gtdsi kiritiladi.

E-Auksion bank balansidagi mulklarni Auksion savdolarida nazorat qilib borish imkonini beradi. Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk ma'lumotlari quyidagi tartibda to'ldiriladi. Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk sanasi, Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk summasi, Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk lot raqami, Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk savdo kuni, Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk web sayt joylashgan manzil, Auksionda savdosiga chiqarilgan mulk

scrinshot holatdagi holati kiritiladi. Ushbu holat shunday ketma ketlikda to'ldirib boriladi.

Baholash. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarni qaysi mustaqil baholovchi tomonidan qachon qancha summaga baholatilganligi bilish imkonini beradi. Mustaqil baholovchi nomi, litsenziyasi, litsenziya sanasi, hisobot raqami, hisobot sanasi, hisobot summasi kiritiladi

Sotish qismi ushbu tartib bo'yicha amal qilinishi zarur bo'lgan band hisoblanadi. Agar "Sotish" bandi to'ldirilmasa bank balansidagi mulkni so'ndirish imkoni yo'q. "Sotish" bandi 3 qismdan iborat. "Bo'lib to'lash" bandi, "Auksionda" bandidan iborat.

- "Bo'lib to'lash" bandida bo'lib to'lashga sotilgan mulk, mijoz xos raqami, mulk sotilgan bo'lib to'lash shartnoma summasi, bo'lib to'lash shartnoma sanasi, bo'lib to'lash shartnoma so'ngi muddati, mulk sotilgan mijoz nomi kiritiladi.

- "Auksionda" bandida 100%ga sotilgan mulk lot raqami, mulk sotilgan summasi, E-Auksion sanasi, g'oliblik bayonnomasi raqami, mulk sotilgan mijoz nomi kiritiladi.

Bo'lib to'lash

Bank balansiga taklif etilgan mulklarni "Bo'lib to'lash" maydonidan "Qo'shish" tugmasini bosish orqali qo'shadi. Bunda "Qo'shish" tugmasi bosilganda "Yangi maydon" oynasi ochiladi va unga mijoz turi, mijoz xos raqami, mulk nomi, shartnoma raqami, shartnoma summasi, boshlang'ich to'lov, bo'lib to'lash summasi, shartnoma sanasi, shartnoma so'ngi muddati, QQS summasi, tasnifi, shartnoma maqsadi, shartnoma imzolagan bank rahbari, mulk yutilgan Auksion lot raqami, imtiyozli davr, kredit ajratilishida garovga mulk bergan mijoz nomi va stiri, kredit olgan mijoz nomi va stiri, Balansga olingan mablag', balansga olingan sana, bank balansidagi mulk id raqami, kredit ajratilishidagi kredit raqami ko'rsatilgan holda kiritiladi.

"Saqlash" tugmasini bosiladi. Kiritilgan ma'lumotlar to'g'riligiga ishonch hosil qilganidan so'ng keyingi bosqichga o'tiladi.

Foizlar. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha hisoblanishi lozim bo'lgan foiz stavkasi kiritiladi. Asosiy foiz stavkasi, Muddati o'tgan qarzdorlik uchun asosiy foiz stavkasi.

O'tkazmalar. Amalga oshirilgan bank amaliyotlarini Amalga oshirilgan bank amaliyotlari tarixi bilan tanishish imkonini beradi.

Grafik. To'lov grafigi 3 qismdan iborat. Asosiy qarz, foiz to'lovi va muddati uzaytirilgan foiz to'lovi grafigidan iborat. Amaldagi shartnoma bo'yicha grafikka to'lov summaları va sanalari kiritiladi. To'lov grafigi bo'yicha ko'rsatilgan sanada (ish kuni bo'lsa) o'z vaqtida to'lanmagan qarzdorliklar muddati o'tgan hisobvaraqa o'tkaziladi.

Hujjatlar. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk bo'yicha hujjatlarni PDF holatda kiritiladi.

Ta'minot. Bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarning ta'minot qismi 2 ga bo'linadi. Garov mulki va kafillik.

Garov mulki bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulk va qo'shimcha garov sifatida taqdim etilgan (mulk) ta'minot bo'lishi mumkin.

- Garov mulki. Bunda "Qo'shish" tugmasi bosilganda "Yangi maydon" oynasi ochiladi va unga mulk turi, garov

beruvchi nomi va stiri, ta'minot summasi, mulk turi tanlanadi.

Agar mulk ko'chmas mulk bo'lsa, mulk tipi tanlanadi, mulkning turar yoki noturarligi kiritiladi, mulk kadastr qiymati kiritiladi, kadastr raqami :.:.:.: ko'rinishda kiritiladi, mulk qurilgan yili to'ldiriladi, kadastr raqami, kadastr sanasi, mulk devori, tom qismi, qavati, xonalar soni, umumiy maydoni, qurilish osti maydoni, hududi, tumani, lokatsiyasi va manzili kiritiladi;

Agar mulk transport bo'lsa, mulk tipi tanlanadi, ishlab chiqarilgan davlat, mulk ishlab chiqarilgan yili to'ldiriladi, dvigatel raqami, kuzov raqami, davlat raqami, shassi raqami, markasi, rangi va holati kiritiladi;

Agar mulk asbob-uskuna bo'lsa, zavod raqami, uskuna raqami, ishga tushgan yili, mulk ishlab chiqarilgan yili, ishlab chiqarilgan davlat va holati kiritiladi;

Sug'urta kompaniyasi nomi, sug'urta polisi raqami, sug'urta kompaniyasi stiri, sug'urta shartnomasi raqami, sug'urta shartnomasi sanasi, sug'urta shartnomasi so'ngi muddati, sug'urta shartnomasi summasi, sug'urta polisi sanasi, sug'urta polisi so'ngi muddati va sug'urta mukofoti kiritiladi.

- Kafillik. Ta'minot uchun qabul qilingan kafillik 2 ga bo'linadi. Yuridik shaxs va jismoniy shaxs kafilligi.

Yuridik shaxs kafilligida kafillik beruvchi nomi va stiri, xizmat ko'rsatuvchi bank kodi, hisobvarag'i, kafillik shartnomasi raqami, kafillik shartnomasi sanasi, kafillik shartnomasi so'ngi muddati, kafil manzili va kafil faoliyat joyi manzili kiritiladi.

Jismoniy shaxs kafilligida kafillik beruvchi nomi va JHShR, plastik karta raqami, kafillik shartnomasi raqami, kafillik shartnomasi sanasi, kafillik shartnomasi so'ngi muddati, kafil manzili va kafil ish joyi manzili kiritiladi.

"Mulk dasturi" avtomatlashgan holda bank balansidagi va bo'lib to'lash sharti asosida sotilgan mulklarni amaldagi 2696-Nizom talablari asosida tasniflaydi. Tasnifga ko'ra xaziralar yaratadi va qaytaradi. Ushbu jarayonlar to'liq avtomatlashgan holda amalga oshiriladi.

Xulosa o'rnida, bank balansidagi har bir mulk alohida o'rganilganda 70 % bino-inshootlar, 20 % asbob uskunalar, 10 % transport vositalari hisoblansa, ushbu mulklarni sotish choralari ko'rish bo'yicha alohida ishlash va daromad keltirmaydigan aktivlarni daromad keltiruvchi aktivlarga aylantirish lozim bo'ladi.


Xulosa va takliflar

Xulosa o'rnida, bank balansidagi har bir mulk alohida o'rganilganda 70 % bino-inshootlar, 20 % asbob uskunalar, 10 % transport vositalari hisoblansa, ushbu mulklarni sotish choralari ko'rish bo'yicha alohida ishlash va daromad keltirmaydigan aktivlarni daromad keltiruvchi aktivlarga aylantirish lozim bo'ladi.

Bugungi kundagi bozor sharoitidan kelib chiqib yondashish talab etiladi.

Respublikamiz bo'yicha bunga alohida e'tibor qaratilgani so'zimiz isboti hisoblanadi.

"Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025 yil 15 apreldagi PQ-142-sonli Qarori bunga yaqqol misol bo'la oladi.



Xususan Tijorat banklariga qarzdorliklarni so'ndirish evaziga bank balansiga qabul qilingan bino-inshootlar, texnologik uskunalar va boshqa mol-mulklar negizida tijorat banklari huzuridagi investitsiya kompaniyalari orqali to'xtab qolgan ishlab chiqarish (xizmat ko'rsatish) faoliyatini tiklab, ularni tayyor biznes sifatida salohiyatli investorlarga sotish huquqi berilganligi bu borada yanada jozibadorlikni oshirib yuborganini e'tirof etish lozim.

Taklif etilayotgan ushbu tizim bank tizimida boshqa aktivlarning samarali boshqarilishida muhim omil hisoblanadi. Bank ko'rish mumkin bo'lgan zararlarni oldini olish, banklarda bank balansiga kirib kelishi kutilayotgan mulklarni nazorat qilish imkonini beradi. Ushbu jarayonlarni to'liq avtomatlashtirish tizimli ravishda raqamlashtirish esa bugungi kunning dolzarb vazifasi hisoblanadi.

Foydalanilgan Adabiyotlar

1.O'zbekiston Respublikasining Qonuni "Banklar va bank faoliyati to'g'risida" Toshkent sh., 2019 yil 5 noyabr, O'RQ-580-son

2.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «Bank xizmatlari ommabopligini oshirish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida»gi qarori. 2018 yil 23 martdagi PQ-3620-son

3. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Qarzdorlik hisobiga banklar balansiga olingan mol-mulklar realizatsiyasini jadallashtirish chora-tadbirlari to'g'risida"gi qarori 2025 yil 15 aprel PQ-142-son

4.Bank xizmatlari iste'molchilari bilan o'zaro munosabatlarni amalga oshirishda tijorat banklarining faoliyatiga qo'yiladigan minimal talablar to'g'risidagi Nizom 2018 yil 2 iyul № 3030

5.Tijorat banklarida aktivlar sifatini tasniflash va aktivlar bo'yicha ehtimoliy yo'qotishlarni qoplash uchun xaziralar shakllantirish hamda ulardan foydalanish tartibi to'g'risidagi 2696-sonli nizom. 2015 yil 14 iyul.

6.www.cbu.uz -Fzbekiston Respublikasi Markaziy banki internet sayti

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati

1.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 5-noyabrdagi PF-6098-son Farmoni — "Raqamli O'zbekiston - 2030" strategiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida.

2.O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2024). Raqamli bank xizmatlarini rivojlantirish bo'yicha yillik hisobot. Toshkent: MB axborot markazi.

3.O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son Farmoni — "2022-2026-yillarga mo'ljallangan yangi O'zbekiston taraqqiyot strategiyasi to'g'risida".

4. O'zbekiston Respublikasi Markaziy banki (2023). O'zbekiston bank

tizimi rivojlanishining asosiy ko'rsatkichlari. Toshkent: www.cbu.uz

5. Jahon banki (2023). Uzbekistan Financial Sector Review: Digital Transformation and Inclusion. Washington, D.C.: World Bank Group.

6. Xalqaro Valyuta Jamg'armasi (IMF) (2023). Digitalization and Financial Stability in Emerging Economies. IMF Working Paper No. 23/105.

7. Asian Development Bank (2022). Digital Financial Services in Central Asia: Opportunities and Challenges. Manila: ADB Publications.

8. Karimov, A. (2023). Raqamli banklar va ularning moliyaviy tizimdagi o'rnini. — "Iqtisodiyot va innovatsiyalar" ilmiy jurnali, №4 (65), 112–123.

9. Qodirov, Sh., & To'xtayev, M. (2022). O'zbekistonda raqamli bank tizimining rivojlanish istiqbollari. — Toshkent moliya instituti ilmiy axboroti, №2, 87–95.

10. TBC Bank Uzbekistan (2024). Annual Report 2023. Toshkent: TBC Bank Press.

11. Anorbank (2024). Raqamli moliyaviy xizmatlar bo'yicha innovatsion yechimlar. Toshkent: Anorbank nashriyoti.

12. Ziraat Bank Uzbekistan (2023). Digital Banking Ecosystem in Uzbekistan: Experience and Practice. Toshkent: Ziraat Digital Center.

13. OECD (2023). Digital Transformation in Banking and Financial Inclusion. Paris: OECD Publishing.

14. McKinsey & Company (2022). Global Banking Annual Review: The Digital Decade. London: McKinsey Insights.

15. PwC (2023). Banking in 2030: The Future of Digital Finance. PwC Global Report.

